



Pedagogical technologies for developing communication skills in future teachers of music education

Mukhlisakhon TURSUNALIEVA¹

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024
Received in revised form
15 August 2024
Accepted 25 August 2024
Available online
15 September 2024

Keywords:

communicative competence,
future textbook,
communication,
higher education,
music,
heritage,
education,
upbringing,
socio-pedagogy.

ABSTRACT

In this article, the issues related to the socio-pedagogical necessity of improving the educational process for future music education teachers to foster students' axiological attitudes toward the national musical heritage have been scientifically analyzed. Additionally, the article examines communicative competence in future music education teachers, the development of their professional competence, and the unity of the three components of communication: communicative, interactive, and wise. The article also explores professional communicative competence, communicative self-improvement, and the educational activities within higher pedagogical education.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss8/S-pp1-4>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

kommunikativ kompetentlik,
bo'lajak o'qituvch,
muloqot,
oliy ta'lim,
musiqa,
meros,
ta'lim,
tarbiya,
ijtimoiy-pedagogika.

Mazkur maqolada bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini o'quvchilarning milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga doir ta'limiy-tarbiyaviy jarayoni takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruratini tadqiq etish jarayoni bilan bog'liq masalalar ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida kommunikativ kompetentlik, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari, muloqot qilishda uchta o'zaro bog'liq kommunikativ, interfaol va pertseptiv komponentlarning birligi o'qituvchining kasbiy kommunikativ kompetentligi, kommunikativ o'zini o'zi takomillashtirish, oliy pedagogika ta'limining o'quv mashg'ulotlari o'rganilgan.

¹ Teacher, Department of Music Education, Andijan State University.

Педагогические технологии развития коммуникативных навыков у будущих учителей музыкального образования

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

коммуникативная компетентность, будущий учебник, общение, высшее образование, музыка, наследие, образование, воспитание, социально-педагогика.

В данной статье научно проанализированы вопросы, связанные с исследованием социально-педагогической необходимости совершенствования образовательного процесса будущих учителей музыкального образования с целью формирования у учащихся ценностного отношения к национальному музыкальному наследию. Также рассмотрены вопросы коммуникативной компетентности будущих учителей музыкального образования, развития их профессиональной компетентности, а также единство трёх взаимосвязанных компонентов общения: коммуникативного, интерактивного и перцептивного. Изучены профессиональная коммуникативная компетентность педагога, коммуникативное самосовершенствование и учебная деятельность в контексте высшего педагогического образования.

KIRISH

Hozirgi kunda bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Bu haqda Respublikamiz ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagogning kommunikativ kompetentligi uning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar u bilan muloqotga kirishishning samarali mexanizmlarini tatbiq etishning me'yoriy asoslari yaratilgan.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o'quvlar guruhlarini kiritish lozim. Pedagogning bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari B.S. Abdullaeva, A.A. Abduqodirov, G. Abduraimova, Sh. Abduraimov, B.R. Adizov N.N. Azizxodjaeva, S. Bazarova, U.Sh. Begimqulov, R.H. Djuraev, R.G. Isyanov, Sh.Q. Mardonov A. Maxmudov, D. Mamatov, N.A. Muslimov, O. Musurmonova, U.N. Nishonaliev, S. Nishonova N. Ortiqov, M. Ochilov, B.X. Rahimov, O'.Q. Tolipov, O. To'raqulov, U. To'raqulov, D. Sharipova Sh.S. Sharipov, A.A. Xalikov, N.G'. Egamberdieva, M. Qodirovlar tadqiqot ishlarida yoritilgan Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari tadqiqotchilari L.S. Vigotskiy, P.Ya. Galperin V.V. Davidov,

N.V. Kuzmina, Ye.N. Linov, I.Ya. Lerner, A.K. Markova, N.D. Nikandrov S.L. Rubinshteynlar tomonidan o'qituvchi kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik jihatlari o'rganilgan. Yevropa mamlakatlarid o'qituvchilar kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalari M. Buber, L. Botcheva, R. Boyatzis, F. Delamare, A. Disterveg, J. Dyui A. Maslou, Jan Piaje, K. Yasperslar tomonidan tadqiq etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Muloqot qilishda uchta o'zaro bog'liq kommunikativ, interfaol va pertseptiv komponentlarning birligi sifatida uch tomonlama yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi (G.M. Andreeva, A.A. Bodalev, B.D. Parigin). Bunda muloqotning kommunikativ tomoni o'zida o'quvchilarning axborotni uzatish, o'zaro ta'sir qilish interfaol tashkiliy jihatini, pertseptiv jihati esa, ularning bir-birini idrok etishi hamda shu asosda o'rnatilgan o'zaro tushunchalar bilan: "pedagogik mahurat", "malakaviy tavsif", pedagogik ta'lim nazariyasida o'qituvchiga kasbiy-professional asoslangan talablar turli tushunchalar bilan ifodalangan: "pedagogik mahurat", "malakaviy tavsif", "shaxsning professiogrammasi", "professional tayyorlik", "kasbiy-professional kompetentlik" bilan ifodalangan.

TAHLILI VA NATJALAR

Musiq ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar texnologiyalarni yaxshi tushunadilar. Ammo ko'pchilik talabalar kerakli ma'lumotni topa olmaydilar. Chunki bugungi oliy pedagogik ta'limda musiqa ta'limining axborot-resurs zahirasi juda boy emas, shuningdek, o'rganuvchilar mustaqil o'rganishi va darsdan tashqari mashg'ulotlarni davom ettirishi to'g'ri va samarali tashkil etilmagan. Shu bois bugungi musiqa ta'limida ta'lim oluvchilar pedagogning bir dars davomida o'rgatganlariga qaram va mana shunday samarasiz dars mashg'ulotlari ichida qolib ketmoqda. Shu bilan birga, aksariyat talabalar elektron kutubxonalarda ishlashni kerakli ma'lumotlarni chuqur tahlil qilishni, mavzu bo'yicha materiallar bankini tuzishni (kurs ishlari, maqolalar, doklad va referatlar), parametrlar (matn intervalini, shriftini) belgilashni bilmaydi. Ularda mustaqil ta'lim olish, musiqiy bilimni oshirish va o'rganganlarini mustahkamlash imkonini yaratish, axborot resurslarni ham kengaytirish kerak. Olim U. Yuldashevning fikricha, "bo'lajak musiqa ta'limi tizimi mutaxassisini shakllantirish, avvalambor talaba shaxsini loyihalashdan boshlash kerak. Buning uchun esa, avvalo, unda kelajakda pedagogik jarayon subyekti bo'lishiga imkon beradigan fazilat va hususiyatlarni loyihalash lozimdir". Bu uning kasbiy kompetentligini belgilovchi professional bilim, ko'nikma va malakalari; intellektual-o'rganuvchanlik qobiliyati; aqliy mehnat qila olishi; kreativlik qobiliyatlari va qadriy-rag'bat sohasi; xamkorlik, jamoaviy-tashkiliy, birgalikda, hamnafas faoliyat yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga urinish bilan birga ularda badiiy-estetik bilim va ko'nikmalalarni shakllantirish, ularda estetik nafosat va didni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu komponentlarning yaxlitligi va rivojlanganligi mutaxassisning professional mobillik darajasini belgilaydi. Bitiruvchining kelajakda kim bo'lishi-ijrochimi yoki pedagogmi, qaysi daraja tayyorgarligi bor va necha yosh kategoriyalar bilan ishlaydi – bularning hammasi loyihalashtirish paytida juda muhim. Natijada, talabaning hayotdagi maqsadi va keyingi faoliyat rejalarini aniqlash uning kasbiy tayyorgarligiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, aksariyat talabalarning musiqa cholg'u asboblari ijro texnikasining yetishmasligi va ta'lim sifatining yaxshi emasligi, talabalarda ham musiqa ilmini egallashga bo'lgan qiziqishning yuqori emasligi natijalarni yuqori bo'lmasligiga ta'sir ko'rsatmoqda. "Bu hol "Cholg'u

ijrochiligi” fanining guruh bo‘lib o‘tkazilishi va o‘quv rejada berilgan o‘quv soati xaftada guruh uchun 2 soatni tashkil etishi bilan ham bog‘liq. Talabalarning boshqa, barchasi muhim fanlarda berilgan vazifalarini bajarishlari ham kerakligini e‘tiborga olsak, ijro mahoratini oshirish uchun talaba mustaqil ko‘p shug‘ullanishi kerak”. Mana shunday muammolarni bartaraf etish orqali musiqa ta‘limini isloh qilish va rivojlantirish mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga musiqa ta‘limi bo‘lajak o‘qituvchilarining badiiy-estetik didi va dunyoqarashini o‘stirish mumkin. Demak, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi orqali o‘quvchilarda yuksak fikr va tuyg‘ular, nafosat, dil quvonchlari, armon va orzular hosil qilishi, ularning ijodkorlik qobiliyatini oshirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, san‘at garchand fandan ko‘ra o‘ziga xos usulda ko‘zda tutgan maqsadi ham bir qadar boshqacha bo‘lsa-da, ilm-fan bilan doimo uzviy bog‘liq. Chunki, muayyan san‘at asari ilmiy o‘rganilayotgan ijtimoiy muammolarni ham qamrab oladi. Bo‘lajak musiqa ta‘limi o‘qituvchilarida o‘zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon musiqiy madaniyat va o‘zbek milliy musiqasiga qadriyatli munosabatni shakllantirishga qaratilmog‘i lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, kommunikativ o‘zini o‘zi takomillashtirish maqsadi aniq, ammo motivlar turlicha bo‘lishi mumkin. Insonparvar yo‘nalgan o‘qituvchi uchun kommunikativ o‘zini o‘zi takomillashtirish nafaqat o‘zi uchun o‘zini o‘zi yaxshilashda, balki samarali o‘zaro munosabatni amalga oshirishning asosiy sharti sifatida kechishi kerak bo‘lib, bu bolalarning rivojlanishiga, ularning individualliklari va o‘ziga xosliklarini saqlashga yordam beradi.

Shuning uchun kommunikativ o‘zini o‘zi rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlar katta ahamiyatga egadir. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari amaliy yondashuv orqali kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil qilishning metodik ta‘minotini ishlab chiqishni taqozo qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimova D.A. “Musiqa madaniyati” fani o‘qituvchisining zamonaviy pedagogik mahorati. // Zamonaviy ta‘lim. 2018. No5. –B. 7.
2. Maxmudova C. Innovatsion yondashuv asosida umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarining musiqiy madaniyatini shakllantirish texnologiyalari. Zamonaviy ta‘lim jurnali. 2018. No8. –B. 63.
3. Panjiyev Q, Azizov R. Estrada qo‘shiqchiligi yoshlarni tarbiyalashning ma‘naviy vositasi sifatida. Zamonaviy ta‘lim. 2018. No7. –B. 12.
4. Yuldoshev.U.Y. Musiqa o‘qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli va professiogrammasi. //Zamonaviy ta‘lim. 2019. No 9(82). –B. 51.
5. Yuldoshev U.Y. Milliy maqom asarlari asosida bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent.: TDPU. 2021. –B. 10.